



## Nutqiy etiket va muloqot uslubi tarixiga nazar

*Nazarova Shahnoza*

*ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

O‘zaro muloqot qilish, suhbatlashish inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, mazkur suhbatning qay yo‘sinda olib borilishi muvaffaqiyatning ham, aksincha muvaffaqiyatsizlikning ham asosiy omili bo‘lishi mumkin. Muloqot kishi hayoti davomida eng asosiy rol o‘ynaydigan faoliyatdir. Turfa madaniyatga mansub insonlar muloqotini to‘g‘ri usulda olib borish va xushmuomalalik qoidalarini anglagan holda, unga rioya qilish sotsiolingvistikada hozirgi kunga qadar kenroq hamda chuqurroq yoritilgan tadqiqotlarga muhtoj aktual mavzu bo‘lib qolmoqda.

Qaysidir millatda hurmat belgisi tazrida qabul qilingan tushuncha, boshqasida butunlay o‘zgacha, ya‘ni qo‘pollik tariqasida namoyon bo‘lishi mumkin.

Xitoy tilshunosi Jiang Zhu ta‘kidlaganidek, “O‘zaro xalqlararo muloqotda madaniyat tafovutlari nutq uslubida, nutqni qo‘llash qonun-qoidalarida muhim rol o‘ynaydi. Inson odatda o‘zining madaniyati prinsiplaridan kelib chiqib o‘zini tutishi va o‘z madaniyati qoidalariga asoslanib boshqa odamlarning xulq-atvorini baholaydi. Bu holat tilshunoslikda “pragmatik transfer” (pragmatik ko‘chish) deb nomlanadi. Aynan shu pragmatik ko‘chish oqibatida osongina muvaffaqiyatsizlikka yuz tutilishi va o‘zaro madaniy muloqotda tushunmovchiliklarga duch kelinishi mumkin”.

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab, so‘z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyatlari doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllanib kelmoqda. Zamon rivoji, insonlar dunyoqarashi jadal rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar davrida millatlararo nutqiy etiket bilan bog‘liq tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jumladan, adabiy almashuniv, turizm, diplomatik aloqalar, siyosiy-iqtisodiy hamkorlik masalalari, shuningdek, til o‘qitishda izlanishlar natijalari muhim manba bo‘lib xizmat qila oladi. Nutqiy etiket mavzusi bo‘yicha jahon tilshunosligi miqyosidagi izlanishlar XIX asr oxirlarida boshlanib, asosan Uzoq Sharq mamalakatlarida manbalarida (Xitoy, Yaponiya, Koreya), keyinchalik XX asr o‘rtalaridan Yevropa va Amerika tilshunosligi hamda jamiyatshunoslik fanlari doirasida o‘rganilgan tadqiqotlarni kuzatish mumkin. XX asr oxirlarida Janubiy Osiyo hamda Yaqin Sharq mamlakatlarida ham salmoqli ishlar amalga oshirilganligiga ilmiy izlanishlar jarayonida guvoh bo‘ldik. Nemis tili bo‘yicha 1970 yillardan, o‘zbek tilshunosligida 1990 yillardan etiket masalalari tadqiqot masalasi sifatida ko‘tarila boshlandi.

Nuqtiiy etiket mavzusi bo‘yicha muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, bu masala tarixdan kishilik jamiyati hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Tarixiy asarlarda ham nutq madaniyati, notiqlik san‘ati aks etgan bo‘limlar bilan tanishish



mumkin. Jumladan, miloddan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda Arastu, Demosfen, Sitseron kabi ijodkorlar o'z notiqliklari, ritorika san'ati bilan mashhur bo'lganlar.

Arastu<sup>1</sup> nutqda aniqlik bo'lmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmasligini, notiqlik san'atining asosiy yutug'i ham uning aniq va tushunarli bo'lishidadir, deb izohlagan. Nutqiy etiket ifodasi har tomonlama o'rganib chiqilgandan so'nggina keng ommaga tatbiq etilmog'i lozim. Bu talablar hozirgi kunga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan.

Sud notiqligi bo'yicha shuhrat qozongan Sitseron<sup>2</sup> nutqlarida fikr erkinligi hukmron bo'lgan va notiqning falsafiy, siyosiy, axloqiy qarashlari har doim uyg'un tarzda mujassamlashgan. Sitseron o'zining "Notiqlik san'ati" kitobida "O'ziga bo'lgan ishonchning mavjudligi ulkan boylikdir" deb ta'kidlaydi.

Sitseron matnning ravonligi, go'zalligi, ifodaliligi va musiqiylikiga alohida urg'u bergan. Uning fikricha, "har qanday notiqning asosiy maqsadi — tinglovchining zavqini uyg'otib, o'ziga moyil qilishdan iborat".

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi.

Aslida, "etiket" tushunchasi miloddan avvalgi 2,5-3 ming yillikda qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Etiket (étiquette) atamasi esa XVII asr oxirida vujudga kelgan. Ammo qadimgi manbalar etiket qoidalarini ta'bir, rasm-rusum hamda odatlar shaklida azaldan ibtidoiy davrlardayoq qoidalarda mavjud bo'lganligini asoslaydi. Keyinchalik esa bu qoidalar mustaqil ravishda ajralib chiqib, faqatgina axloqiy me'yorlar darajasida ko'rila boshladi. Qadimgi Sharqda, jumladan, Somir alqovlarida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi yozma yodgorliklarda – g'iltaxtalarda o'z aksini topgan. Qadimgi Misrda bu tartib-qoidalar majmui sifatida emas, balki badiiy adabiyot orqali namoyon bo'lgan.

Sharq mutafakkiri Jaloliddin Rumi ta'kidlaganidek: "Insonlardagi go'zallik bu – yuzdir, yuzdagi go'zallik esa – ko'zdir. Ammo, insonni inson qilgan bu uning tilidan chiqadigan - so'zdir". Millatimiz fidoyilaridan biri jadid Abdulla Avloniy esa: "Millat tilini yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir", deb aytgan. Ma'rifatparvar adibning til va millat ruhining mushtarakligi haqidagi qarashlari buyuk nemis mutafakkir olimi Vilgelm fon Gumboldt g'oyalariga bevosita hamohanglikda tutashib ketadi. Uning "millatning xarakterini axloq, odat, xatti-harakatidan ko'ra, tiliga qarab osonlik bilan bilish mumkin" degan fikrlari aynan tilda millat belgilari doimo mavjud bo'lishiga ishora qilib, lingvokulturologiyaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunda nutq etiketi birliklari masalaning asosiy markazidan o'rin egallaydi.

<sup>1</sup> Arastu. Poetika. Axloq kabir. Ritorika. T.: Yangi asr avlodi-2011.

<sup>2</sup> Sitseron. Notiqlik san'ati. T.: 2018



“Nutqiy etiket” (Politeness) ilmiy termin shaklida G‘arb tilshunosligida o‘tgan asrning 60-yillaridan qo‘llana boshlandi va alohida soha sifatida shakllandi. Bu boradagi ilk tadqiqotlar kaliforniyalik Robin Lakoff<sup>3</sup>, amerikalik P. Braun, britaniyalik S. Levinson<sup>4</sup> va G.Lich<sup>5</sup> kabi olimlarga tegishli hisoblanadi. Ammo ilk bor Irving Goffmann “feys (face) – yuzni yo‘qotish”, “yuzni saqlab qolish” va uyatli/hijolatli yuzli bo‘lish kabi tushunchalarni fanga olib kirdi. U “Face”-“Yuz” (hurmat)ni quyidagicha ta’riflaydi: “Face”-“yuz” biz o‘zimizni boshqalarga qanday ko‘rsatishimiz in’ikosidir”<sup>6</sup>. Olim murojaat, so‘z va iboralarni to‘g‘ri qo‘llash; shaxslarga ularning jamiyatdagi mavqeyi va yaqinlik darajasiga qarab muomala qilish, rasmiy yoki norasmiy nutqni to‘g‘ri va joyida qo‘llash; muayyan vaziyatlarga bog‘liq til an‘analarini to‘g‘ri tushunish (takliflarni qabul qilish yoki rad etish, suhbatni boshlash va tugatish va h.k.) kabilarni nutqiy etiket qoidalari deb ta’kidlaydi va fikrlarni misol bilan dalillaydi.<sup>7</sup> Uningcha, ma’qullangan xususiyatlar va ularning feys (face) ga nisbatan munosabatlari har bir kishining o‘z mahbusidir. Shunday bo‘lsa-da insonlar o‘z individual xohishlarini qanchalik afzal ko‘rmasinlar, fundamental ijtimoiy chegaralanishga bo‘ysunishga majburdirlar.”<sup>8</sup> Amerikalik lingvist olim R.Lakoff nutqiy etiketni “jamiyatda rivojlangan yaxshi xulq-atvor ko‘rinishi” deb ta’riflagan.

So‘zlovchi ma’lum bir fikrni ifodalari ekan, ushbu nutq mazmuni aniq va tushunarli bo‘lishi tinglovchi uchun muhim hisoblanadi. Tinglovchi tomonidan ushbu mazmun anglanib, uning mazkur fikrga nisbatan harakati o‘zaro aloqador sanaladi. Shu sababli, nutq faoliyati davomida uning mazmun jihatdan o‘rganilishi pragmatikada tadqiq etiluvchi dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Jahon tilshunosligida nutqiy muloqot, nutqning ijtimoiy ahamiyati, uning vazifalari, nutq odobi, uning nutqiy muloqotdagi o‘rni kabi muammolarga juda ko‘p e’tibor qaratilgan.

Bugungi kunda tilshunoslarning shaxslararo verbal muloqot va odamlarning bir-biri bilan o‘zaro muloqoti muammolariga qiziqishlarining tobora ortib borayotgani sababli til egalari nutqiy faoliyatining har qanday shaklini hamda ularning kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>3</sup> Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society, 1973. – P. 292-305.

<sup>4</sup> Brown P., & Levinson S. Universals in Language usage: Politeness phenomena. – London, 1978. – 345 p.

<sup>5</sup> Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman Publ., 1983. – 250 p.

<sup>6</sup> Goffman E. International ritual: Essays in face-to-face behavior. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 9-10.

<sup>7</sup> Goffman E. On face-work: an analysis of ritual elements in social interaction in Laver and Hutcheson. – New York: Pantheon Books, 1967. –319 p.

<sup>8</sup> O‘sha manba



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Begmatov E. Oliy ta'lim tizimida nutq madaniyatining o'rni. –Toshkent: O'zbekiston, 1999
2. Iskandarova Sh. O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari. Avtoreferat. – Samarqand: 1993
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika.- Toshkent, 2008
4. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013
5. Adams, C. (2002): Practitioner Review: The assessment of language pragmatics. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 43, 973-987.
6. Arastu. Poetika. Axloqi kabir.Ritorika. T.: Yangi asr avlodi-2011.
7. Sitseron. Notiqlik san'ati. T.: 2018
8. Lakoff R. The logic of politeness: or minding your p's and q's // *Papers from the Ninth Regional Meeting of the Chicago Linguistic Society*, 1973. – P. 292-305.
9. Brown P., & Levinson S. *Universals in Language usage: Politeness phenomena*. – London, 1978. – 345 p.
10. Leech G. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman Publ., 1983. – 250 p.
11. Goffman E. *International ritual: Essays in face-to-face behavior*. – New York: Pantheon Books, 1967. – P. 9-10.
12. Goffman E. *On face-work: an analysis of ritual elements in socialinteraction in Laver and Hutcheson*. – New York: Pantheon Books, 1967. –319 p.